

TALABALARNING TIL O'RGANISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN ONLAYN O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Alimqulova Hulkar Tolibovna

Jizzax shahridagi QFU filiali Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning til o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan onlayn o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi o'rganilgan. Maqolada til o'rganishda onlayn platformalardan foydalanishning afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: talaba, til bilish qobiliyati, oliy ta'lim, onlayn platforma, o'quv mashg'uloti, metodika.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ОНЛАЙН-ЗАНЯТИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается методика организации онлайн-учебных занятий, направленных на развитие языковых навыков учащихся. В статье раскрываются преимущества использования онлайн-платформ при изучении языка.

Ключевые слова: студент, языковые навыки, высшее образование, онлайн-платформа, учебная сессия, методика.

METHODS OF ORGANIZING ONLINE CLASSES TO DEVELOP STUDENTS' LANGUAGE SKILLS

Abstract: This article discusses methods of organizing online classes aimed at developing students' language skills. It reveals the advantages of using online platforms for learning a language and the methodology used in such classes.

Keywords: students, language skills, higher education, online platforms, training sessions, methods.

Jahon tajribasidan ma'lumki, ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning til qobiliyatini rivojlantirishdir. Tilni bilish qobiliyati muvaffaqiyatli o'quv jarayoni, muloqot va kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur asosdir. Shu bois til ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi samarali yondashuv va usullarni ishlab chiqishning ahamiyati pedagog va tadqiqotchilar uchun dolzarbdir.

Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki jahonning rivojlangan mamlakatlarida ham oliy ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar oliy ta'limni samarali tashkil etishda yangi ta'lim paradigmalarini ishlab chiqish, nazariya va amaliyotni integratsiyalashuvi uchun innovatsion ta'lim muhitini yaratishni tavsiya qiladi. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish uchun esa innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ko'rgazmali didaktik vositalardan foydalanishning samarali usullarini o'rganish ham tavsiya etiladi.

Respublikamizda ham hozirda tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan va turli yoshdagi talabalarda til qobiliyatini rivojlantirish alohida yondashuvni va tegishli uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishni talab qiladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini optimallashtirish va ta'limga

tabaqalashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Talabalarning akademik faolligi til ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Talabalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlarini va ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda, o'quv faolligini oshirishga qaratilgan metodologiyani ishlab chiqish o'quv samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning motivatsiyasi va natijalarini yaxshilashi mumkin.

Mamlakatimizda o'rganishlar natijasida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning til o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda yanada samarali metodologiyasini ishlab chiqish kutilmoqda. Ushbu uslub o'qituvchilarga o'z o'quv faoliyatida til o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish, interfaol va moslashtirilgan o'quv materiallarini yaratish, shuningdek, talabalar bilan onlayn muloqot qilish imkonini beradi. Va bu talabalarga yanada yaxshi bilim olish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quv jarayoniga motivatsiyani oshirish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishda belgilangan vazifalar ham oliy ta'lim talabalarining til o'rganish qobiliyatlarini yanada rivojlantirish zarurligini belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan bugungi globallashuv davrida internetning keng tarqalishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilim olish va o'rganish shakllarini yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, til o'rganish jarayonida onlayn o'quv mashg'ulotlarining samaradorligi yosh avlodning tilga bo'lgan qiziqishini oshirishga va til o'rganish qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan muhim vositaga aylangan. Bugungi kunda onlayn o'qish, talabalarga nafaqat yanada eng yaxshi bilim olish imkonini beradi, balki ularga zamonaviy o'qitish metodikalari orqali tilni o'rganishda qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

Onlayn o'qish orqali til o'rganish talabalar uchun ahamiyatlidir. Birinchidan, onlayn o'qishning eng katta afzalligi, uni qo'llash qulayligi va geografik cheklovlardan xoli bo'lishidir. Talabalar dunyo bo'ylab turli tillardagi kontentlarga murojaat qilish orqali til bilimini rivojlantirishlari mumkin. Onlayn mashg'ulotlar, talabalarga maqsadga muvofiq materiallarni tanlash va o'z tempida o'rganish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, talaba o'rganish jarayoniga individual yondashuvni ta'minlaydi. Ikkinchidan, til o'rganishda onlayn platformalarning roli juda kengdir. Onlayn platforma va dasturlar, masalan, Duolingo, Memrise, Babbel kabi servislar talabalarga tilni o'rganishda interaktiv va o'yinlashtirilgan usullar orqali yordam beradi. Ular yordamida talabalar grammatika, lug'at, tildagi ma'nolar va yozish qobiliyatlarini takomillashtirishlari mumkin. Shuningdek, ushbu platformalarning ko'pchiligiga testlar, viktorinalar, video va audio materiallar joylashtirilgan, bu esa o'qishning qiziqarli va faol shakllarini yaratadi. Uchinchidan, onlayn til o'rganish mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xoslik onlayn platformalarning foydalanuvchilari sonini ortishiga katta xizmat ko'rsatadi.

Til o'rganish jarayonida onlayn mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish uchun bir qator metodikalar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari quyidagi elementlarga asoslanadi:

- Maqsadli auditoriyani aniqlash: Onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda talabalarning yoshi, bilim darajasi va ehtiyojlari hisobga olinishi kerak. Masalan, aniq bir tilni o'rganish uchun turli darajalar bo'yicha kurslar taqdim etish (beginner, intermediat, advanced).
- Interaktivlik: Til o'rganish jarayoni interaktiv va muloqotga asoslangan bo'lishi lozim.

Onlayn platformada to'g'ri va noto'g'ri javoblar, testlar va mavzuga oid suhbatlar orqali talabalarning bilimini baholash va yangi materiallarni o'rganishga yo'naltirish mumkin.

- Multimediya vositalaridan foydalanish: Video, audio, rasm va animatsiyalar orqali tilni o'rganish jarayoni rang-barang va qiziqarli bo'ladi. Bundan tashqari, multimediya yordamida talabalarning eshitish, ko'rish va yozish qobiliyatlari bir vaqtda rivojlanadi.

- Qayta aloqa va individual yordam: Onlayn o'qish jarayonida talabalarga muallimlar tomonidan fidoyi yordam va qayta aloqa ko'rsatish muhimdir. Bu o'quv jarayonida talabalarning kamchiliklarini aniqlash va ularni to'g'rilash imkonini beradi.

Til o'rganishda foydali bo'lgan va o'z metodikasiga ega bo'lgan onlayn resurslarga quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

1. Duolingo – Xususiylashtirilgan o'quv dasturi bo'lib, grammatik va leksik materiallar orqali talabalarni rivojlantiradi.

2. Memrise – O'zining videolar va o'yinlashtirilgan testlari orqali talabalarga yordam beradi.

3. BBC Learning English – Ko'pgina til o'rganuvchilar uchun interaktiv materiallarni taqdim etadi, shu jumladan audio va video darslar.

Onlayn til o'rganish mashg'ulotlari talabalarning til qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim va samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi natijasida yaratilgan zamonaviy platformalar orqali talabalar o'quv jarayoniga faolroq jalb etilishi mumkin. Bunday platformalarda mavjud bo'lgan video, audio, interaktiv topshiriqlar, testlar va real hayotga yaqin mashqlar tilni egallash jarayonini yanada oson va samarali qiladi. Bunda talabalar o'zlari uchun qulay va mos bo'lgan o'quv uslublarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning mustaqil ravishda bilim olishlariga va shaxsiy o'sishlariga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy metodikalarning qo'llanilishi va ta'limning individual yondashuvga asoslanishi til o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Gamifikatsiya (o'yinlashtirish), virtual haqiqat elementlari, sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalari orqali talabalarning darslarga bo'lgan qiziqishi ortib boradi, bu esa o'z navbatida ularning o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiyalovchi muhit, mustaqil ishlash imkoniyati va doimiy ravishda baholash tizimining mavjudligi esa talabalarda mas'uliyat hissini oshirib, ularni muntazam o'rganishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, onlayn til o'rganish mashg'ulotlari zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular nafaqat bilim olish jarayonini soddalashtiradi, balki uni interaktiv, qiziqarli va individual ehtiyojlarga mos holda tashkil etish imkonini ham beradi. Bu esa talabalarning til o'rganishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi va ularni yuqori natijalarga erishishga undaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Крюкова О. С. Языковая компетенция и социальная мобильность // Социология власти. 2009. № 8, - С.120-126.

2. Михалева Е.А. Языковое образование как составляющая экономического капитала личности на современном рынке труда / Е.А. Михалева // Фундаментальные исследования. 2008. № 7, - С. 91-93.

3. Соколова Н.С. Новые образовательные модели иноязычной подготовки специалистов в условиях революции управления: к постановке проблемы //Образовательные технологии и общество. 2012. № 2, - С. 553-564.

4. Юрьева, Ю. С. Языковая профильная подготовка в условиях непрерывного образования//Сибирский педагогический журнал. 2010. № 1, - С.151-164.